ILOQLIKLAR E’TIQODIDAGI AYRIM MASALALAR

Ahmedov Farruh Nurmuhammad o‘g‘li
Angrenshahar 73-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internati
tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Iloq (Ohangaron) vodiysi aholisining islomgacha bo‘lgan diniy e’tiqodlari va ayrim ibtidoiy diniy marosim va urf-odatlari, dafn marosimlari, ibtidoiy diniy e’tiqodning davrimizgacha yetib kelgan ayrim elementlari haqida qisqacha tarixiy va etnografik ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Iloq, animism, totemizm, fetishism, reinkarnatsiya, klan, Sirius, li, go‘r, altar, monoteistik, ostadon, assuary

Iloq (Ohangaronlik) liklarning qadimgi animistik, totemistik va fetishistik e’tiqodlariga yohud bu hududga zardushtiylikning ta’siriga doir arxeologik ma’lumotlar ko‘p emas. Lekin shuni ta’kidlash joizki, bu yerda yashovchi aholi orasida qadimgi totemistik qarashlar qoldiqlari ba’zan sezilib qoladi. Ma’lumki, XVIII asr oxirida Yevropa faniga kirib kelgan «totemizm» termini ibtidoiy qabila sharoitida ona tomonidan o‘zaro qarindoshlar yoki ota urug‘ vakillari o‘zga ona qarindosh yoki amakivachchalar bilan yashirin narsa yoki jonzot tufayli qondoshlik guruhini (klanni) tashkil etishini anglatadi. Guruhdagi qondoshlar uchun totem o‘simlik yoki hayvonni yeyish, totem narsaga dahl qilish ta’qiqlangan. Ammo totem sanalgan hayvonlarga bag‘ishlangan marosimlarda totem go‘shtidan ozgina yeyish talab etilgan. Shunday qilinsa, go‘yoki totem bilan magik aloqa yanada mustahkamlangan, ozgina go‘sht yemaganlar esa bunday aloqadan mahrum bo‘lganlar. Totem bilan magik aloqadan mahrum shaxslar esa tez kasalga chalinuvchan, dushmanga yengiluvchan bo‘lib qoladilar. Islomgacha bo‘lgan qadimgi diniy tasavvurlarga ko‘ra, dushmanga ziyon-zahmat yetkazish uchun uning totemini o‘ldirish kifoya. Totemizmning asosi qondoshlik aloqalarini tashqi olam bilan bog‘lash, totem ajdodlarga e’tiqod va totemning qayta tirilish (reinkarnatsiya) holatida abadiy yashashiga ishonch tashkil etadi. Jumladan, Ohangaron vodiysining keksa o‘zbeklarida oilasida yangi tug‘ilgan chaqaloqning og‘ziga el ichida hurmat va e’tiborli urug‘doshlariga tuflab qo‘yishni iltimos qilish odati saqlangan. Ularning nazarida, ajdodlar totemi qo‘llab-quvvatlagani yoki shu shaxs tanasiga o‘rnashgani uchun ham omadi ham ishi yurishib, el e’zoziga sazovor. Uning tupigi orqali ana shu xususiyatlar va muqaddas ruh (totem) homiyligi zora chaqaloq vujudiga ham o‘tsa.

Marhumlar ruhining abadiyligi va doimo ularning yonida yashab kelishlari haqidagi animistik tasavvurlar ham Ohangaron vodiysida yashovchi ayrim keksa o‘zbeklar xotirasida saqlanib qolgan. Jumladan, Keksalar o‘gitiga amal qiluvchi

oilalarda hozir ham farzandlariga «Siz»lab hurmat bilan murojaat qilish va ularning kamchiliklarini muloyim so‘z bilan tushuntirish an’anasi mavjud. Angren shahridagi Maydon mahallasi 17-uyda yashovchi 85 yashar o‘lanchi Hamila aya Abduraimovaning aytishlaricha, XX asrning birinchi yarmida yashagan mulla va baxshilar (childirma chalib qo‘chiriq qiluvchi, bemor tanasidan yovuz ruhlarni quvuvchilar) ruhlar bilan muloqot (trans) holatiga kirib, go‘dak tanasida qaysi ajdodi qayta yashayotganligini ham aytib berishgan.

Ohangaron o‘zbeklari xotirasida zardushtiylik va islom dini qabul qilinganidan keyin ham totemistik, animistik, kultlarga ishonch va hokazo ko‘rinishdagi qadimiy tasavvurlar qoldiqlarining saqlanib qolish sabablari ilmiy izohini kutmoqda. Vodiyning tog‘liq qishloqlarida hozirgi kunlarda ham kuchayib borayotgan sel xavfini qaytarish uchun soy qirg‘og‘ida navvos so‘yib, qonini suvga oqizish va kallasini selga uloqtirib, go‘shtini xudoyi qilish udumi mavjud. Bu marosimning ishtirokchilari shunday qilinsa, selning qaytishiga hech shak-shubha qilmaydilar. Bu nimadan dalolat beradi? Bizningcha, bu holat tabiat stixiyalari oldida ojiz va har xil tabiiy ekstrimni yuzaga keltiruvchi ilohiy kuch borligiga ishongan ajdodlarimiz udumi. Ma’lumki, «Avesto»da keltirilgan xudolar panteonida Erhubbi - yer-suv va hosildorlik “xudo”si, Sirius (shunday nomlanuvchi yulduz ham mavjud) esa osmon suvlari “xudo’’si sifatida ta’riflangan. Sirius keyinchalik Tishtir - Tishtr – Sustr – Sust shakliga kelib, o‘zbek folkloridagi Sust xotin obrazini shakllantirdi. Saqlanib qolgan ishonchlarga ko‘ra, osmon suvlari bekorga g‘azabga kelmaydi. Odamlar Siriusga (Sustxotinga) o‘z vaqtida hadya (qurbonlik) bermay qo‘yganlar, uni unutayozganlar. Ularning tasavvuricha shu boisdan endi uy, dala-bog‘lari sel ostida qolmoqda. Keksalarning eslashlaricha, ilgari osmon suvlari “xudo”sining g‘azabini bosish, unga tavba-tazarru qilish niyatida ota-onasiz yetim bolani ushlab kelib tiriklay to‘g‘onga bosganlar. Go‘yoki suv “xudo”si bolaning jonini olganidan so‘ng tinchlanib, sel bosilganmish.

Piskent yaqinidagi va Murotali atrofidagi ko‘hna qabristonlardan jasad solingan maxsus idishlar va sopoldan yasalgan ostadonlar topilgan. Ularga zardushtiylik diniga sig‘inuvchilarning suyaklari solib qo‘yilgan. Bu idishlarning qopqoqlariga mayitning ruhini qo‘riqlovchi echkilar va qo‘ylar tasviri tushirilgan[1] (Yana bir tadqiqotchi T.I.Lebedevaning ta’kidlashicha, Toshkent viloyati (Shosh-Iloq vohasi) va Farg‘ona vodiysida sharqdan yangi turkiy qavmlar ko‘chib kelgunga qadar ham mayitning go‘r (qabr)ga ko‘mish udumi amalda bo‘lgan. Olima islomgacha bo‘lgan (zardushtiylik va boshqa ko‘rinishlardagi) dafnni quyidagi uch tipga ajratadi:

1-tip. Etdann tozalangan suyaklarning ostadonga (assuariy)ga solib ko‘milishi;

2-tip. Etdan tozalangan suyaklarning xo‘jalik idishlariga (xum, xumcha, qozon va boshqa idishlarga) solib ko‘milishi;

[1]Ўзбекистон халқлари тарихи. 1 китоб. Т., 1992 й.

3-tip. Etdan tozalangan suyaklarning maxsus supacha ustiga yoki uncha katta bo‘lmagan chuqurchaga ko‘milishi[2].

Bizningcha, T.I.Lebedeva ajratgan ikkinchi tipdan qadimiy bo‘lishi kerak. Chunki mayit suyaklarini uy-ro‘zg‘or idishlariga emas, loydan yasalib, olovda toblangan, sirti bo‘yalmagan ostadonlarga solib ko‘mish udumini nsbatan keyin paydo bo‘lganligi inson tafakkurining taraqqiyot bosqichlaridan mantiqan anglashiladi. Shu o‘rinda nima uchun marhumning suyagi alohida ko‘milgan, degan savol tug‘iladi. «Avesto» matnlarida yozilgan zardushtiylik e’tiqodiga ko‘ra, mayitning ruhi suyaklar ichiga joylashgan bo‘ladi. Ruh tana qafasidan tezroq halos bo‘lishi uchun suyaklarni qoplab turgan et tezroq yo‘q bo‘lishi kerak. Shu boisdan Zardusht muhiblari o‘likni saqlab o‘tirmay, tezda maxsus (aholi yashaydigan joydan uzoqroqda qurilgan) to‘rtburchak bino - mehrob (altar) ustiga tashlab kelganlar. Bu yerga o‘rgangan etxo‘r qushlar qisqa vaqt ichida mayitning faqat suyagini qoldirishgan. Keyinchalik jasad maxsus mehrobga olib borilmay, go‘r qazilib, mayit yonida ichiga yangi so‘yilgan go‘sht parchasi va don solingan idish bilan birga ko‘milgan. Bundan kuzatilgan maqsad ham ilgarigiday - qurt-qumursqalar tezroq kelib mayit etidan suyakni halos etishlari kerak.

Iloqliklar Turk xoqonligi davridaVII asrdan boshlab monoteistik dinga – Ko‘kturk tangrisiga sig‘ina boshlagan bo‘lsalar, yana bir-ikki asrdan so‘ng musulmonlik e’tiqodini qabul qilish juda qiyinchilik bilan kechdi. VII asrda yozilgan Xitoy solnomalardan birida ta’kidlanishicha, Neota ismli kishi rafiqasi (Shosh-Iloq) xukmdori Yaksart (Sirdaryo) bo‘yidagi, maydoni 10 li (5 km.) keladigan qarorgohda (ko‘hna Banokat nazarda tutilayotgan bo‘lsa kerak) yashagan. Qarorgohning janubiy-sharqiy tomonida joylashgan binoning o‘rtasiga taxt qo‘yilgan. Qamariy birinchi oyining oltinchi kunida bu taxtning ustiga hukmdor Neota-onasi suyaklarining kuli solingan tilla idishni qo‘yishgan. So‘ngra yig‘ilganlar uning atrofida doira shaklida aylanib, o‘tkir hidli gul va mevalarni tashlay boshlaganlar. Hukmdor a’yonlari bilan birga qurbonlik keltirgan. Marosimning oxirida Ne rafiqasi bilan birga maxsus qo‘nalg‘aga ketgan.

VIIasrning o‘rtalarida Shosh bilan Iloq ikki xil e’tiqod va ikki qudratli imperiya – Turk xoqonligi bilan Arab xalifaligi o‘rtasidagi siyosiy-mafkuraviy to‘qnashuvlar maydoniga aylandi. 726 yilgi kelishuvga binoan Sirdaryoning chap hududi arablarga, o‘ng hududi esa Turk xoqonligiga bo‘ysungan. Ammo shunga qaramay, arab istelochilari yirik dehqonlarni xufyalar vositasida poraga sotib olish va boshqa yo‘llar bilan siyosiy tajovuzni davom ettirdilar.

O‘sha paytda arab sarkardalari orasida: «Chochdan o‘tar bo‘lsang, kiyimingning etagini balandroq ko‘tar. Chunki bu yer hamma hukmdorlar nari qochadigan insu-

[2] Лебедева Т.И. К вопросу о мусульманских погребениях первой половины VIII в. – Археология и история Центральной Азии (К 70 летю со дня рождения академика Академии наук Узбекистан Юрия Федоровича Бурякова). Самарканд. 2004.

jinslar yurti», - degan aytim paydo bo‘lgan. Muqanna (769-783) va Rofe ibn Lays (804-810) harakatlarida iloqliklar juda faol ishtirok etganliklari to‘g‘risida ko‘p yozilgan.Bundan shuni anglash mumkinki o‘sha vaqtda mahalliy Iloqliklar Muqannani diniy e’tiqod emas yurti ozodligi yo‘lida qo‘llab-quvvatlaganliklari ko‘proq haqiqatga yaqin zero Muqanna diniy e’tiqodda islomni qabul qilmay Mazdakiylik ta’limotiga e’tiqod qilgan. V.V.Bartoldning yozishicha, Muqanna 783 yili Angren shahrining shimoliy-g‘arbidagi Qizilolmasoyga kelib, «ishtonsoldi» marosimini o‘tkazgan. Xalifa Ma’munning Choch va Iloqdagi voliysi Nuh Ibn Asad 840 yilga qadar bu yerdagi isyonlarni shafqatsizlik bilan bostirdi. Bu davrda Iloq shaharlarida mahalliy ko‘chmanchi va o‘troqlashgan turkiylar bilan birga ularga nomoz va boshqa shariat qoidalarini o‘rgatish uchun Nasr Ibn Sayyor davridan boshlab (733 yildan) Xurosondan majburan ko‘chirib keltirilgan fors-tojik tilida so‘zlashuvi aholining soni ham ko‘payib bordi»[1]. Shu tariqa Iloqda yangi diniy e’tiqod bo‘lgan musulmonchilik qaror topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Асқаров А. Ўзбекистон тарихи. Т., 1994 й.
2. Ўзбекистон халқлари тарихи. 1 китоб. Т., 1992 й.
3. Лебедева Т.И. К вопросу о мусульманских погребениях первой половины VIII в. – Археология и история Центральной Азии (К 70 летю со дня рождения академика Академии наук Узбекистан Юрия Федоровича Бурякова). Самарканд. 2004.
4. И. Ёрматов “Илоқ тарихи” Т.,2009.

[1]Асқаров А. Ўзбекистон тарихи. Т., 1994 й.